

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANIDAN
ZAMONAVIY BILIM BERISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR

Ismailova Nargiza Saparbayevna

Xorazm viloyati Urgansh shahri

5- son umumiy o'rta ta'lif maktabining

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf matematika darslari o'quvchilarining ilk hisobkitobni o'rganishiga asos bo'ladi. Shu tufayli ushbu darslarni interfaol metodlar yordamida qiziqarli tarzda tashkil etish talab qilinadi. Ushbu maqola boshlan'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda matnli masalalarning ahamiyatiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: matematik masala, tushuncha, fikrlash qobiliyati, dars, yig'indi.

Abstract: Elementary mathematics lessons are the basis for students to learn the first calculation. Because of this, it is necessary to organize these lessons in an interesting way using interactive methods. This article is devoted to the importance of textual problems in developing thinking skills of primary school students.

Key words: mathematical problem, concept, thinking ability, lesson, sum.

Аннотация: Уроки элементарной математики являются основой для обучения учащихся первым расчетам. В связи с этим необходимо интересно организовать эти занятия с использованием интерактивных методов. Данная статья посвящена значению текстовых задач в развитии мыслительных способностей учащихся начальных классов.

Ключевые слова: математическая задача, понятие, мыслительная способность, урок, сумма.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarini har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatlari qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarini shakllantirish boshlang'ich matematik ta'lifning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta'lif mazmuni va o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish,

o'zaro aloqadorlikda va o'quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o'qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo'llash o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar tushunchasini mohiyatini va hisoblash usullarini yetkazish uslubiyatini ishlab chiqish o'z ichiga o'quvchilarda umuman boshlang'ich matematika asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni oladi. Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir.

O'qituvchining maqsadi - yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarni o'qishga o'rgatish. Ta'lim texnologiyalari esa faqatgina amalda o'zlashtirilishi mumkin. Fikrlash odatda muammolar, savol, yoki ziddiyat paydo bo'l ganda boshlanadi. Buning uchun o'qituvchi muammoli vaziyatlarni qo'llaydi va ularni hal qilishga yordam beradi.

Muammoli vaziyatlarni yaratish o'qituvchilardan maxsus metodik usullarni o'rganishni talab qiladi. Muammolarning uchta guruhini farqlash mumkin:

- 1) kognitiv - o'r ganuvchi (nazariy fikrlash),
- 2) baholovchi (tanqidiy fikrlash),
- 3) tashkiliy-ishlab chiqaruvchi (amaliy fikrlash).

Kognitiv muammolarni taqqoslash, faraz qilish, o'z taklifini ishlab chiqish orqali hal qilish mumkin. Natijada fanda yangi qonunlar, xulosalar va yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Baholovchi muammolar sub'ektlar va ish natijalarini tanqidiy baholashni talab qiladi. Tashkiliy-ishlab chiqaruvchi muammolarni hal qilishda esa atrofdagi turli xil o'zgarishlarni hal etish yo'llarini izlash bilan bog'liq, shuningdek, bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Bu muammoli vaziyatlarni bat afsil ko'rib chiqaylik. Har bir darsda o'quvchilarni tushunchalarga mustaqil ta'rif berishga jalb qilish mumkin. Kuzatishlar, tushuntirishlar asosida o'quvchilar ob'ekt yoki hodisaning xususiyatlarini aniqlaydilar. Masalan, talabalar "to'rtburchak" tushunchasini o'rgandilar va endi kvadratni o'rganishga kirishdilar. "Kvadrat" tushunchasini ta'riflash kerak. Doskada o'qituvchi turli o'lchamdag'i, holatdag'i, turli rangdag'i bir necha kvadratlarni chizdi. "Bu kvadrat" tushunchasiga ta'rifi berish va umumiy bo'lgan xususiyatni aniqlash kerak. Ushbu usulni qayta takrorlash natijasida, o'quvchining ongida atrofdagi narsalar haqidagi bilish kontsepsiysi shakllanadi. Baholovchi muammoli masalalarini hal qilishni tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishdir. Ob'ektlar va hodisalarini baholamaslik uchramaydigan turmush tarzi mavjud emas. Shuning uchun ham to'g'ri, tanqidiy fikrlash qobiliyati barcha insonlar uchun zarurdir. Odatda darsda o'quvchilar yolg'on mulohazalarni rad etishlari kerak bo'ladi. Ushbu usulga rioya qilishlari va taqqoslash yo'li bilan xatolikni topishlari

kerak bo'ladi. Odatda, o'qituvchilar o'quvchilarga xatolarsiz vazifalarni taqdim qilishadi. Natijada, o'quvchilarda taqdim etilayotgan xabarlarga, ko'rsatmalarga to'g'ri ma'lumot degan qat'iy ishonch hosil qilinadi. Bundan qochish va o'quvchilarni tahlil qilish, xatolarni topish va ularni isbotlash qobiliyatini rivojlantirish kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmalarni asta-sekinlik bilan hosil qilish kerak: bиринчи navbatda, xatolik bor bo'lgan hukmni aniqlasin, keyin xatolarni rad etadigan dalillarni tanlasin, nihoyat, izchillik bilan inkor etishni o'rgansin.

Matematikadan boshlang'ich ta'lim – tarbiyaviy vazifalari nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu o'zicha ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani va matematika fani xususiyatini o'z ichiga metodologik o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) oldi. Biroq, birgina nazariy bilimlarning o'zi, har qanday boshqa faoliyatga tayyorlanishdagi kabi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng yaroqli usullarini tiklash va qo'llanishini bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarurdir. Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish, ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat uchun xususiy, amaliy, o'quvchilar mustaqil ish natijasida xususan, seminar, amaliy va laboratoriya ishlarida matematikani o'qitish metodikasida bajariladigan ishlar orqali egallanadi. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o'zida o'qitish amaliyotida foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda ular bir qiymatli yechimga ega emas. Darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining o'qituvchi tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Boshlang'ich ta'lim metodikasi bu xususiyatni hisobga olmaydi. O'yinda o'qitish vositasi sifatida mutlaqo foydalanimaydi. Mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli ulardan kam foydalaniadi, shu bilan birga boshqacha yo'l bilan o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida ishlataladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, darslikni ayblash, uning yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolarni og'zaki tarzda bayon qilish bilan ish bitmaydi. Dunyoda ideal deb qaraladigan darslik bo'limgan, bo'lmaydi ham. Biroq kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsliklarni amaliyatga tatbiq etishga doir videoseminarlar, vebinar darslarni o'qituvchilar hukmiga ko'proq va xo'broq havola etib borsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Ikkinci sinf matematika darsligi. Toshkent. “O’qituvchi” 2005-yil.
2. Bikboeva. N.U. Yangiboeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “O’qituvchi” 2005-yil.
3. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G’. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitishmetodikasi. Toshkent. “Fan va texnologiya” 2005-yil.